

701-300

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

“TASDIQLANGAN”



(O‘L. Prerktoni)

«28»

2025 yil



**« DIZAYN NAZARIYASI VA METODOLOGIYA ASOSLARI »**

**FANINING O‘QUV DASTURI**

|                                     |          |                                    |
|-------------------------------------|----------|------------------------------------|
| <b>Bilim sohasi:</b>                | 200 000  | – San‘at va gumanitar soha.        |
| <b>Ta‘lim sohasi:</b>               | 210 000  | – San‘at.                          |
| <b>Magistratura mutaxassisligi:</b> | 70210401 | -Dizayn ( <i>kostyum dizayni</i> ) |

| Fan/modul kodi<br>DNMA 1106 |   | Semestr<br>1                           | ECTS-kreditlar<br>6          |                           |
|-----------------------------|---|--|------------------------------|---------------------------|
| Fan/modul turi<br>Majburiy  | Ta'lim tili<br>O'zbek, rus  |  | Haftadagi dars soatlari<br>4 |                           |
| 1.                          | Fanning nomi  | Auditoriya<br>mashg'ulotlari<br>(soat) | Mustaqil<br>ta'lim<br>(soat) | Jami<br>yuklama<br>(soat) |
|                             | Dizayn nazariyasi va metodologiya asoslari  | 60                                     | 120                          | 180                       |
| 2.                          | <p><b>I.Fanning mazmuni:</b><br/> Fanni o'qitishdan maqsad - kiyim modellarini yaratishda kompozitsiya va loyihalashning nazariy va amaliy asoslari va qonuniyatlarini o'rgatish.</p> <p>Fanning vazifasi - dizaynni paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi bilan tanishtirish, ommaviy sanoat buyumlarini dizayn – loyihalash metodlari va vositalari bilan tanishtirish. dizayn-loyihalashni metodologiyasi bilan tanishtirish, dizaynning nazariy konsepsiyalari bilan tanishtirish, dizayn-loyihani ergonomik ta'minlanishi bilan tanishtirish, patentlarni tuzish va ro'yxatga olish qoidalari bilan tanishtirish.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Dizaynni o'ziga xosligi, dizaynni paydo bo'lishi va evolyusiyasi, grafik dizaynni tarixi, firma uslubi tushunchasi, dizayinning nazariy konsepsiyasi, moda industriyani tashkil etilishi, dizayn–loyihalashni metodologiyasi bo'yicha, dizayn–loyihalashning vositalari bo'yicha, dizayn–loyihalashning ergonomik ta'minoti bo'yicha, firma uslubini grafik elementlarini loyihalash, dizayn – sanoat mulki sifatida asoslash bo'yicha ko'nikma hosil qilishdir.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):</b><br/> Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Dizayn nazariyasining asosiy tamoyillari. Dizayn falsafasi va tarixi. Dizayn tushunchasi: an'anaviy va zamonaviy talqinlar</b><br/> An'anaviy dizayn: tarixiy ildizlar va tamoyillar. Zamonaviy dizayn: asosiy o'zgarishlar va tendentsiyalar. Raqamli inqilob va zamonaviy dizaynning transformatsiyasi. Dizayn sohasining kelajakdagi istiqbollari va innovatsion yo'nalishlari.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu. Dizayn evolyusiyasi: madaniyat, texnologiya va ijtimoiy dinamika o'rtasidagi sinergiya</b><br/> Madaniyat va dizayn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Texnologik taraqqiyotning dizaynga ta'siri. Ijtimoiy o'zgarishlar va dizaynning o'zaro</p> |  |                              |                           |

munosabati. Zamonaviy O'zbekiston kostyum dizayni: an'ana va innovatsiya uyg'unligi

### **3-mavzu. Dizayn maktablari va ularning ta'siri (Bauhaus, Ulm dizayn maktabi, zamonaviy oqimlar)**

Bauhaus (1919–1933) – Funktsionalizm va modernizm negizi. Ulm Dizayn Maktabi (HfG Ulm, 1953–1968) – Ilmiy yondashuv va tizimli dizayn. Zamonaviy Dizayn oqimlari: XXI-Asr innovatsiyalari.

### **4-mavzu. Dizaynning estetika va funktsional prinsiplari. Badiiy va amaliy dizayn qonuniyatlari**

Badiiy dizayn qonuniyatlarining foydalanuvchi psixologiyasiga ta'siri. Barqarorlik – zamonaviy modaning asosiy tamoyili. Ergonomika va ishlab chiqarish texnologiyalari. Barqaror moda - badiiylik va amaliylikning yangi bosqichi.

### **5-mavzu. Kompozitsiya, rang, shakl va makon munosabatlari.**

Kostyum dizaynida kompozitsiyaning ahamiyati. Ranglar psixologiyasining ilmiy asoslari. Psixologik ta'sir, moda trendlari.

### **6-mavzu. Dizaynda semiotika: belgilar, ramzlar va vizual kommunikatsiya**

Semiotikaning qisqacha ta'rifi (belgilar va ma'nolar nazariyasi. Belgilar va ularning turlari (ikon, indeks, Ramz). Dizaynda semiotikaning ahamiyati (oddiy belgilar orqali kuchli ma'nolar yetkazish). Vizual kommunikatsiyada semiotik qonuniyatlari. Madaniyatlararo semiotika va global dizayn.

### **7-mavzu. Zamonaviy dizayn tendentsiyalari. Raqamli texnologiyalar va dizayn (AI, VR, AR)**

Zamonaviy dizaynning asosiy yo'nalishlari. Raqamli texnologiyalarning dizayn sohasiga ta'siri. Sun'iy intellekt (AI) bilan dizayn. Virtual reallik (VR). Kengaytirilgan reallik (AR). Prototip yaratish va sinov. Maketlar, 3D modeldagi vizualizatsiya.

### **8-mavzu. Barqaror dizayn (sustainable design) va ekologik mas'uliyat. Dizayn va global ijtimoiy muammolar.**

Barqaror moda va ekologik dizayn. Qayta ishlangan materiallar, atrof-muhit. Energiya tejoychi dizayn. Uzoq umrli mahsulotlar yaratish.

### **9-mavzu. Materiallar va texnologiyalarni tanlash.**

To'qima dizayni va naqshlar, Matolar tuzilishi, tikuv usullari, aksessuarlar.

### **10-mavzu. Dizayn metodologiyasi va loyihalash. Dizayn jarayoni va**

#### **metodlari.**

Dizayn jarayonining asosiy bosqichlari. Market va raqobat tahlili. Dizaynni baholash va takomillashtirish. Startap uchun biznes va dizayn strategiyasi ishlab chiqish.

#### **11-mavzu. Dizayn-loyihalash bosqichlari (tahlil, ideyalash, prototiplash, baholash).**

Kostyum dizaynini tahlil qilish metodlari. Funktsionallik, estetika, ishlab chiqarish imkoniyatlari.

#### **12-mavzu. Foydalanuvchi tajribasi (UX/UI) va insaytlar asosida qaror qabul qilish.**

AI va sun'iy intellekt yordamida dizayn. ChatGPT bilan ideya ishlab chiqish, AI asosidagi rang kombinatsiyalari.

#### **13-mavzu. Foydalanuvchi tajribasi (UX) va ergonomika** Qulaylik, harakat erkinligi, Dizayn-muhokama (Design Thinking) va kreativ yechimlar.

#### **14-mavzu. Dizaynda ilmiy yondashuv: tadqiqotlar, eksperimentlar va trendlar tahlili**

Dizaynda ilmiy yondashuvning roli. Dizayn eksperimenti va innovatsion yondashuvlar. Trendlarni tahlil qilish va benchmarking. Dizaynda ilmiy yondashuvning ahamiyati.

#### **15-mavzu. Dizayn nazariyasi va metodologiyasining rivojlanish istiqbollari**

Kostyum dizaynidagi yangi texnologiyalar. Smart tekstil, nanomateriallar. Global moda va madaniyatlara dizayn. An'analarda va innovatsiyalarning uyg'unligi.

#### **III. Amaliy mashg'ulotlarni bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kostyum dizayn-loyihasi ishlab chiqish (mavzu: "Ekologik tushunchalar asosida zamonaviy kostyum dizayni").
2. Ishlab chiqilgan loyihaning ijobiy tomonlari va qiyosiy tahlili.
3. Mijozlarning ekodizaynga bo'lgan qiziqishini aniqlash.
4. Benchmarking. Ekobrendlarning dizayn strategiyalarini tahlil qilish (Patagonia, Stella McCartney kabi).
5. Breyntshtorming: "Tabiat va texnologiya" mavzusida ideyalar.
6. Moodboard yaratish: Rang palitrasi, materiallar, teksturalar. 3 ta konseptual kostyum eskizi.

7. Qayta ishlatilgan mato va ekologik boyoqlardan foydalanish.
8. Iste'molchilarning fikrini aniqlash (so'rovnoma).
9. Kostyumni ishlab chiqish (real materiallardan).
10. Chiqindilarning qisqarishi (%). Energiya tejash imkoniyatlari.
11. Tadqiqot natijalari.
12. Ekologik ta'sirning raqamlarda ifodalanishi.
13. Reklama varaqasini ishlab chiqish (masalan, mahalliy brend uchun logotip, qadoq dizayni yoki veb-sahifa).
14. Fotosessiyalar o'tkazish.
15. Sketchbook, eskizlar albomi va grafik ishlarni bajarish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda dizayn yo'nalishidagi Yevropa etakchi oliyo'quv yurtlari tajribasiga asoslanib, har bir semestr davomida bajariladigan amaliy mashg'ulotlar, talabalar tomonidan dizayn - loyiha ko'rinishida topshiriladi. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish orqali talabalar bilimini oshirish va dizayn – loyihani bajarishga oid ko'rgazmali qurollar tayyorlash nazarda tutilgan. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. Kostyum dizaynining zamonaviy jamiyatdagi o'rni
2. Dizayn va san'at o'rtasidagi aloqa
3. Kostyum dizaynida belgi va ramzlarning roli
4. "Bionika prinsiplari asosida kelajak ko'rinish kostyumlari"
5. Rang semiotikasi va uning psixologik ta'siri.
6. "VR-texnologiyalar yordamida virtual moda defilei"
7. "Akselerator moda: 3D modelirovaniye orqali tez prototiplash"
8. Zamonaviy tekstil texnologiyalari va ulardan foydalanish.
9. Ekologik to'qimalar va barqaror dizayn.
10. Kostyum dizaynida innovatsion yechimlar.
11. Raqamli dizayn va uning afzalliklari.
12. Dizayn mahsulotini baholash mezonlari.
13. Smart tekstil va texnologik kostyumlar
14. "Ekologik to'qimalardan foydalanib, zamonaviy ayollar kostyumini loyihalash"
15. Madaniy meros elementlarini zamonaviy kostyum dizaynida qo'llash.
16. "NFT va raqamli moda: kelajakdagi intellektual mulk"
17. "Kosmik moda: mikrogravitatsiya sharoitiga mos keltirilgan dizayn"

|    |  |
|----|--|
|    | <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>   |
| 3. | <p><b>V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– fan dasturi bo'yicha chuqur amaliy va nazariy <i>bilimlarga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>– dizaynni o'ziga xosligi;</li> <li>– dizaynni paydo bo'lishi va evolyusiyasi;</li> <li>– grafik dizaynni tarixi;</li> <li>– firma uslubi tushunchasi <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>– dizayinning nazariy konsepsiyasini;</li> <li>– moda industriyani tashkil etilishini haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>– dizayn–loyihalashni metodologiyasi bo'yicha;</li> <li>– dizayn–loyihalashning vositalari bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>– dizayn–loyihalashning ergonomik ta'minoti bo'yicha firma uslubini grafik elementlarini loyihalash;</li> <li>– dizayn – sanoat mulki sifatida asoslash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul> |
| 4. | <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash;</li> <li>• video materiallar tayyorlash;</li> <li>• individual ishlash.</li> </ul>   |
| 5. | <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>   |
| 6. | <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. У.Т.Мунинова. Основы теории и методологии дизайна – Т.: 2018</li> <li>2. В.Ф. Рунге, В.В. Сеньковский. Основы теории и методологии дизайна - М.: МЗ ПРЕСС, 2003.</li> <li>3. В.Б.Устин. Учебник дизайна. (Композиция, методика, практика) - М.: АСТ, Астрель, 2009.</li> </ol>   |

4. И.А. Розенсон. Основы теории дизайна – СПб.: Питер, 2007.
5. Г.К.Хасанбоева. Костюм дизайни – Т.: ТТЕСИ, 2013.-2476

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Мирзиёев Ш.М. Указ Президента Республики Узбекистан "О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы" УП-60 от 28 января 2022 года
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O'zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O'zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
9. Рунге В.Ф., Сеньковский В.В.. Основы теории и методологии дизайна. Москва. МЗ Пресс, 2005.
10. Сапугольцев В.Ю. Основы теории и методологии дизайна проектирования костюма. Оренбург: Изд-во ОГУ, 2009.
11. Кравцова Т.А. Основы теории и методологии дизайн-проектирования костюма. Владивосток, Изд-во ВГУЭС, 2009.
12. Ковешникова Н.А. Дизайн: история и теория. – М.: Изд-во «Омега-Л», 2009.
13. Аронов В.Р. Современная теория дизайна/ В. Р. Аронов//Проблемы дизайна – 5: сб. науч. тр. – М.: Артпроект, 2009.
14. Казарин А.В. Теория дизайна Учебное пособие Нижний Новгород ННГАСУ
15. Кирсанова Е.А. Материаловедение (дизайн костюма) / Е.А. Кирсанова, Ю.С. Шустов, А.В. Куличенко, А.П. Жихарев. М.: Вузовский учебник: ИНФРА–М, 2013.
16. Звягинцев С. В. Технический и эстетический образы в процессе формирования дизайн-объектов в системе «костюм»: монография /С. В. Звягинцев. – М.: МГУДТ, 2005.
17. Graphic Design Theory: Readings from the Field [Helen Armstrong](#), Paperback: 151 pages, Publisher: Princeton Architectural Press; 1 edition (March 11, 2009).
18. The Design Method: A Philosophy and Process for Functional Visual Communication (Voices That Matter) Paperback – August 23, 2013, by [Eric Karjaluoto](#). Paperback: 240 pages, Publisher: New Riders; 1 edition (August 23, 2013)
19. Victor Margolin – *World History of Design* (дизайн тарихи ва назарияси). Издательство Блумсбери, 2017г.
20. Richard Buchanan – *Design Research and Methodology* (дизайн методологияси ва тадқиқот). 2001 г.
21. Ezio Manzini – *Design, When Everybody Designs: An Introduction to Design for Social Innovation* (барқарор ва ижтимоий дизайн), 2017г.
22. Don Norman – *The Design of Everyday Things* (UX, фойдаланувчи тажрибаси ва эргономика). 369стр, 2020 г.

|    |  |
|----|--|
|    | <p>23. Bruno Munari – <i>Design as Art</i> (дизайн эстетикаси, бадий ва функционал принциплар).</p> <p><b>Axborot manbalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <a href="http://polimi.it">polimi.it</a> — Politecnico di Milano расмий сайти.</li> <li>• <a href="http://design.polimi.it">design.polimi.it</a> — Polimi Design факультети.</li> <li>• <a href="http://uts.edu.au">uts.edu.au</a> — University of Technology Sydney расмий сайти.</li> <li>• <a href="http://artdesign.uts.edu.au">artdesign.uts.edu.au</a> — UTS Design факультети.</li> <li>• <a href="http://msu.ru">msu.ru</a> — МГУ расмий сайти.</li> <li>• <a href="http://hsmi.msu.ru">hsmi.msu.ru</a> — Высшая школа управления и инноваций (UX/UI, дизайн-мышление).</li> <li>• <a href="http://geogr.msu.ru">geogr.msu.ru</a> — МГУ Географический факультет (ландшафт ва баркадор дизайн).</li> <li>• <a href="http://ipro.econ.msu.ru">ipro.econ.msu.ru</a> — Дизайн-мышление ва инновация курслари.</li> <li>• <a href="http://designobserver.com">designobserver.com</a> — Дизайн тенденциялари, мақолалар ва илмий таҳлиллр.</li> <li>• <a href="http://dezeen.com">dezeen.com</a> — Замонавий архитектура ва дизайн портал.</li> </ul> |
| 7. | <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil "24" 08 dagi "1"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>   |
| 8. | <p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b><br/>Kasimova Aziza Baxodirovna – TTYSI, «Moda va dizayn» kafedrası professori t.f.f.d.(PhD)</p>   |
| 9. | <p><b>Taqrizchilar:</b><br/>S.A.Sadikova- Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, “Libos dizayni” kafedrası mudiri<br/>Raxmatullaeva U.S. – TTYESI, « Moda va dizayn» kafedrası professori f.f.n.</p>   |

**Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP 300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.**

| № | OTM nomi                           | QS  | THE | Havolalar   | Sillabusdagi mavzu nomi                    | Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular   |
|---|------------------------------------|-----|-----|---|--|--|
| 1 | Politecnico Milano 1863            | 98  | 201 | <a href="https://www.polimi.it/en/education/laurea-programmes/programme-detail/fashion-design">https://www.polimi.it/en/education/laurea-programmes/programme-detail/fashion-design</a>   | 6-15-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular   | Dizayn metodologiyasi, ilmiy yondashuv, tendensiyalar tahlili, yangi yo'nalishlar.                     |
| 2 | Технологический университет Сиднея | 96  | 154 | <a href="https://www.topuniversities.com/universities/university-technology-sydney/undergrad/bachelor-design-architecture-bachelor-creative-intelligence-innovation">https://www.topuniversities.com/universities/university-technology-sydney/undergrad/bachelor-design-architecture-bachelor-creative-intelligence-innovation</a> | 12-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular     | “Visual Communication”, “Product Design”   |
| 3 | МГУ имени М.В. Ломоносова          | 105 | 107 | <a href="https://msk.postupi.online/vuz/fakultet-iskusstvmgu/programmy-obucheniva/bakalavr/?frazdel=37">https://msk.postupi.online/vuz/fakultet-iskusstvmgu/programmy-obucheniva/bakalavr/?frazdel=37</a>   | 3-4-13-mavzu rejasida ishlatilgan mavzular | UX/UI courses cover ergonomics through topics such as user experience, interface, and design thinking. |